

AYOLLAR KIYIMLARI ISHLAB CHIQRISH UCHUN FOYDALANILADIGAN MATOLAR TAHLILI

*Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun
ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi Ta'lim ustasi
Jamolliddinova Maxbuba Sotvoldiyevna*

Annotatsiya. *Ayollar kiyimlari ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan matolar tahlili haqida tushunchalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *kiyimni loyihalash, o'lchamlar, loyihalash, matolar tahlili, geometrik modeli.*

Maxsus kiyimlar uchun material tanlashda asosan himoya vositalari va yuqoridagi xususiyatlar hisobga olinadi. Kiyim nafaqat kiyish vositasi, balki matolar tikuvchilik ishlab chiqarishda tikish imkoniyati mavjud bo'lishi, ishlatilishi uning kiyish davomiyligi va qulayligi bilan xizmat qiladi.

Maxsus kiyimlarni tikishda foydalanilayotgan gazlamalar ham kiyimning himoya darajasiga uzviy bog'liq hisoblanadi va bir qator guruhlarga ajratiladi:

- metallurklar maxsus kiyim matolari
- neft konlarida ishchilari uchun maxsus kiyim matolari
- payvandchi (svarshik)lar uchun maxsus kiyim matolari
- umumiy ishlab chiqarish sohalarida ishlovchilar uchun maxsus kiyim matolari singari turlarga bo'linadi.

Maxsus kiyimlarda qo'llaniladigan gazlamalar hamma talablarga javob beradigani mavjud emas, mexanik ta'sirlarga chidamlilari suyuqlik yutishi, o'tkazishi yoki o'zida tutib turishi mumkin. Olovga chidamli materiallar egilish, siqilish deformatsiyalari ta'sirida o'z butunligini yo'qatadi. Kimyoviy moddalarga chidamlilari esa turli mexanik ta'sirlarga bardoshi past.

Maxsus kiyim matosi dunyo standart talablariga, sifat ko'rsatkichlariga, materialning normativ huquqiy hujjatlariga, hom ashyo navlariga bevosita ega bo'lmog'i kerak

Trikotaj (frans, tircoter to'qimoq) — bir yoki bir necha iplardan halqalar hosil qilib, ularni o'zaro biriktirish (o'rish) natijasida olinadigan mato yoki buyum. Trikotaj iplarning tarkibiga, ishlatilishi, pardozlash usuli va tuzilishiga qarab turlarga bo'linadi. Tarkibi ga qarab, paxta ipi, jun, ipak va kimyoviy tola aralashgan iplardan to'qilgan xillarga bo'linadi. Ishlatilishiga qarab, trikotaj buyumlar yoki matolarga bo'linadi. Trikotaj buyumlariga kostyum, jemper, kofta, palto, qo'lqop, ko'ylak, ichki kiyim, paypoq va boshqa matolariga sun'iy mo'yna, sun'iy charm kiradi; bular texnik maqsadlarda va turli xil kiyimlar tayyorlashda ishlatiladi. Pardozlash usuliga qarab, dag'al, oqartirilgan, tekis va bo'yalgan xillarga bo'linadi. Trikotajning asosiy fizikmexanik xossalari uning tuzilishiga, xalqalarning

shakli va o'lchamiga, ipning yo'g'on va ingichkaligiga, qalinligi va pishikligiga bog'liq. Tuzilishi (strukturasi) ga qarab, ko'ndalang to'qilgan, tanda o'rilishli, bir qavatli va ikki qavatli bo'ladi. Trikotaj yumshoqligi, elastikligi, g'ijimlanmasligi, yengilligi, oson yuvilishi bilan boshqa to'qima matolardan ustun turadi. Trikotaj o'rilish boshqa oddiy gazlamalar o'rilishidan farq qiladi. Bir yoki bir necha uzluksiz ip xalqalarini bir-biriga birlashtirib hosil qilinadi. Trikotaj halqalarining qanday hosil bo'lishiga qarab, ko'ndalang to'qilgan (kulir) va bo'ylama (tandadan to'qilgan) trikotaj farqlanadi.

To'qimachilik sanoatida bugungi kunga kelib 4000 artikuldan ortiq gazlamalar tayyorlanadi. Ayollar kiyimlari gazlamalar gruppasi juda turli tuman. Bu gruppaga yozgi, qishgi, mavsumbop va kimyoviy kompleks iplar qo'shilib to'qilgan gazlamalar kiradi. O'zbekiston iqlimi keskin o'zgaruvchan kontinental iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin farqlidir. Yillik havo harorati sezilarli darajada yuqori. Bahor va kuz fasillarida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli o'rtacha nisbiy namlik miqdori 30 – 40 % gacha ko'tariladi. Past tekislik hududlarida yillik yog'ingarchilik miqdori 120 – 200 mm, cho'l hududlarida 1000 mm gacha yetadi.

Loyihalananayotgan ob'yekt paketini tanlayotganda mavsum albatta inobatga olinishi shart. Trikotaj gazlamalardan tikilgan kiyimlarni to'rttala mavsumda ham kiyish mumkin.



1-rasm. Trikotaj mato assortimenti.

Trikotaj matolarining standart bo'yicha tasnifi

Trikotaj matolari 4.26-80 raqamli davlat standartida tasniflanadi. Ular, birinchi navbatda, ishlatilish maqsadiga qarab ikki turga bo'linadi:

- 1) ichki kiyimlar uchun mo'ljallangan trikotaj matolar;
- 2) ustki kiyimlar uchun mo'ljallangan trikotaj matolari.

Tolaviy tarkibiga ko'ra esa uchta guruhga bo'linadi:

A) Tabiiy tolalardan va tarkibida 30% foizgacha sintetik tolasi bo'lgan aralashmadan olingan iplardan ishlab chiqarilgan trikotaj matolar;

B) Sun'iy ip va sun'iy tolalardan olingan iplardan ishlab chiqarilgan, hamda sun'iy toladan tashqari tarkibida 30% foizgacha sintetik tolasi bo'lgan tolalar aralashmasidan olingan iplardan ishlab chiqarilgan trikotaj matolar;

V) Sintetik iplardan va sintetik tolalardan olingan iplardan ishlab chiqarilgan hamda sintetik tolalardan tashqari tarkibida 70 % foizdan ko'p bo'lmagan boshqa turdagi tolalari bo'lgan aralashmadan olingan iplardan ishlab chiqarilgan trikotaj matolar.

To'qilish usuliga ko'ra, trikotaj matolar ikki guruhga bo'linadi:

1. Ko'ndalangiga to'qilgan:

- a) bir qavatli;
- b) ikki qavatli.

2. Bo'ylamasiga to'qilgan :

- a) birqavatli;
- b) ikki qavatli.

Trikotajning fizik xususiyatlari ishlatiladigan iplarning tolaviy tarkibiga, zichligiga va o'rilish turlariga boqliq.

Hamma trikotaj o'rilishlari uchta sinfga bo'linadi:

- 1. Asosiy o'rilishlar.
- 2. Hosila o'rilishlar.
- 3. Gulli o'rilishlar.

Trikotaj matolaming assortimenti

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan trikotaj matolari ikkita guruhga bo'linadi:

ichki kiyimlar uchun va ustki kiyimlar uchun, birinchi guruhga kiruvchi matolar erkaklar va bolalar ko'ylaklari, ichki ishtonlari, ich kiko'ylaklari, issiq ko'ylaklar, ayollar ichki kiyimlari, sport kostyumlari va hokazolarni tikish uchun ishlatiladi. Ikkinchi guruhdagilari esa jaket, ko'ylaklar, kostyumlar, paltolar, kurtkalar va hokazo buyumlarni tayyorlashda ishlatiladi. Trikotaj matolarning afzalligi ularning mayinligi, ishqa-lanishga chidamliligi va yuqori qayishqoqligidadir. Trikotaj matolardan tikilgan kiyimni kiyib yurish o'ng'ay, odam bu badanini siqmaydi. Ularning burmabopligi, g'ijimlanmasligi, issiqni saqlash qobiliyati va gigienik xususiyatlari juda yaxshi. Shuning bilan birga trikotaj matolarning cho'ziluvchanligi va chetlari buralgani sababli ularni bichish va tikish jarayonlari qiyinlashadi. Undan tashqari, trikotajning halqalari tikish mashinalarining ignalari bilan shikastlanib bir-biridan chiqishi mumkin. Trikotaj matolari yuvilganda va hatto kimyoviy tozalashda ham bo'ylamasiga kirishadi, eniga esa kengayadi. Shu tufayli trikotajdan tikilgan buyumlar o'z shaklini tez yo'qotadi. Ichki kiyimlarni tikish uchun bo'ylamasiga va ko'ndalangiga to'qilgan matolar ishlatiladi. Mayka, ishtonlar, sport kiyimlari uchun bu matolar paxta tolali ipdan glad o'rilishida ishlab chiqariladi. Ayollar ichki kiyimlarini tikish uchun kimyoviy kompleks iplardan triko-sukno, triko-sharme, to'rsimon triko-sukno o'rilishdagi to'qilgan trikotaj matolari qo'llaniladi.

Bu matolardan tikilgan buyumlar shakllarini ancha yaxshi saqlaydi. Bolalar ichki kiyimlarini tayyorlash uchun paxta tolali iplardan tukli o'rilishdagi matolardan foydalaniladi. Ichki kiyimlarni tikish uchun mo'ljallangan trikotaj matolari oqartirilgan, sildirqa rangli, gul bosilgan holda pardoatlanadi. Ustki kiyimlarni tikish uchun ham ko'ndalangiga va bo'ylamasiga to'qilgan trikotaj matolari ishlatiladi. Ayollar ko'yla k, kostyum, bluzkalarini tikish uchun momiqday mayin junsimon jakkard o'rilishdagi chipor to'qilgan matolar, sirtida chiqarilgan tuki bo'lgan va tukli o'rilishdagi baxmalsimon matolar, hajmdor kapron ipidan olingan shoyisimon matolar, to'rsimon matolar va hokazolar qo'llaniladi. Nisbatan og'ir matolardan qishki kiyimlarni jaket, kostyumlar, sport kiyimlarini

tayyorlashda foydalaniladi. Bu matolarning o'rilishlari turlicha bo'lishi mumkin -jakkard, triko-triko, atlas-triko-sukno, to'rsim o n va boshqalar. Bu buyumlar uchun matolar hajmdor iplardan to'qiladi. Bazilariga zarsimon iplar qo'shiladi. Ko'ylak va kostyumlar bir qavatli va ikki qavatli matolardan tayyorlanadi. Pal'to va kurtkalarga mo'ljallangan sof va yarim jun matolar porolon bilan birlashtiriladi.

Trikotaj matolarning navini aniqlash.





Trikotaj matolarning navini aniqlash tartibi gazlamalarnikidan farq qiladi. Avval ishlab chiqarilgandan keyin laboratoriya tajribalarini o'tkazib matoning sifat ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bunda uning fizik-mexanik ko'rsatkichlari, rangining mustahkamligi va tashqi ko'rinishdagi nuqsonlar bor-yo'qligi aniqlanadi. Laboratoriya


tajribalarini o'tkazish uchun mato to'pidan 5 foiz to'p ajratib olinadi. To'plarning soni beshtadan kam bo'lmasligi kerak. To'pdan ikkita xil namuna qirqib olinadi. Birini sinab matoning namligi aniqlanadi. Ikkinchisi boshqa xususiyatlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Trikotaj matolarning namligi katta ahamiyatga ega. Birinchidan, matoning xususiyatlari uning namligiga bog'liq bo'ladi. Ikkinchidan, trikotaj matolari vazn bo'yicha qabul qilingani tufayli ularning namligi ham hisobga olinishi lozim.

Nuqsonlarning turi va soniga ko'ra mato to'pidagi birinchi, ikkinchi navlarga va yaroqsizlikka to'g'ri keladigan yuzalari aniqlanadi.

Ayollar kiyimlari assortimentlari

No	Gazlam a nomi	Rasm	Tavsifi
.	Jakkard to'qimali trikotaj gazlam a		Jakkard to'qimali trikotaj gazlamaning asos tarkibi kulrang va qizg'ish-qora ranglarda katak yo'llari mavjud. Zamonaviy ishlab chiqarishda sun'iy tolalardan ko'proq foydalanilmoqda. Bu trikotaj gazlama ikki qavatli to'qilishga ega bo'lib, kuzgi qishgi mavsumlarga mos kiyimlarni tikish mumkin.
.	Jakkard to'qimali trikotaj gazlam a		Ikki qavatli jakkard to'qimali trikotaj gazlamaning tarkibi yumshoq va cho'zilish xususiyati yuqori bo'lib, tola tarkibi tabiiy va sun'iy tolalardan to'qilgan. Asosan ko'ylaklar tikish uchun ishlatiladi.

	<p>Glad to'qimali trikotaj gazlama</p>		<p>Glad to'qimali trikotaj gazlamaning tarkibi sun'iy iplardan to'qilgan. Rangi kulrang va xol-xol ko'rinishda. Bu gazlama qalinligining sababi ikki qatlamli to'qimadan iborat. Shuning uchun cho'zilish xususiyati kamroq. Bu gazlamadan ko'ylaklar, jaket-yubkalar, uzun kordiganlar tikish mumkin.</p>
	<p>Glad to'qimali trikotaj gazlama</p>		<p>Glad to'qimali trikotaj gazlamaning tarkibi sun'iy iplardan to'qilgan. Rangi kulrang va yozuvli ko'rinishda. Bu gazlama qalinligining sababi ikki qatlamli to'qimadan iborat. Shuning uchun cho'zilish xususiyati kamroq. Bu gazlamadan ko'ylaklar, jaket-yubkalar, uzun kordiganlar tikish mumkin, bugungi kunda eng ko'p ishlatilayotgan gazlamalardan biri.</p>
	<p>Krepshifon gazlama</p>		<p>Krepshifon gazlamasi yupqa gazlama tanda va arqoq iplarning o'rilishidan hosil bo'lgan. Rangi to'q ko'k yuqoridagi gazlamalardan tikilgan ko'ylaklarning yeng va yoqalarni tikishda qo'llash mumkin.</p>
	<p>Suprem gazlama</p>		<p>Yupqa va qulay suprem materiali 5% laykra (elastan) qo'shilgan tabiiy paxta tolalaridan tashkil topgan. Tarkibidagi sintetik tolalarning bunday past foizi tabiiy trikotajning sifatiga ta'sir etmaydi, aksincha, uning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydi. Shunday qilib, suprem:</p> <ul style="list-style-type: none"> • yuvganda kirishmaydi, g'ijim bo'lmaydi; • havoni yaxshi o'tkazadi; • kiyib yurishga qulay; • tana uchun yoqimli;

			<ul style="list-style-type: none">• undan tayyorlangan mahsulotlar esa elastik hamda chidamlilik xususiyatiga ega bo'ladi. <p>Juda ham yumshoqligi sabab suprem materiali bolalar kiyimlarini ishlab chiqaruvchilarning eng sevimli matosiga aylangan.</p> <p>Odatda u chaqaloqlar kiyimlari, mayka va koftalar tayyorlash uchun qo'llaniladi. Gazlamaning bu turi kattalar kiyimlarini tikish uchun ham mos keladi. Undan futbolka, ko'ylak yoki shortiklar, shuningdek, ichki kiyim, shimlar ham ishlab chiqariladi.</p>
	Suprem gazlama		<p>“Chust Texile” kompaniyasi to'qimachilik mahsulotlarini, shu jumladan, ko'ndalang to'qilgan tekis gazlama – suprem matosini ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanadi. Suprem, haqli ravishda, eng yupqa paxtali trikotaj sifatida tan olingan. Bu sof paxtadan to'qilgan trikotaj gaz-lama. Tarkibi 100% paxta bo'lib, rangi to'q ko'k. Bu gazlamadan asosan yoz fasliga mos kiyimlar tikiladi. Xalatlar, tonikalar, futbolkalar, ko'ylaklar va boshqalar.</p>

Xulosa. Maxsus kiyimlarini ishlab chiqarish uchun material tanlashda asosan himoya vositalari, mexanik xossalarga chidamliligi hisobgan holdan tanlash kerak. Kiyim nafaqat kiyish vositasi, balki matolar tikuvchilik ishlab chiqarishda tikish imkoniyati mavjud bo'ishi, ishlatilishi uning kiyish davomiyligi va qulayligi bilan xizmat qilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ramazanova M.K., Tashpulatov S.Sh. Kiyimni modellashtirish va badiiy bezash. Toshkent, 2010. -290 b.
2. Кузнецова А. Разработка манекенов, совершенствующих проектирование и оценку посадки детской одежды: дисс.я ... канд. Техн. наук. 05.19.04 / Иваново, 2012. – 203 с.

3. Тутова А.А. Разработка метода проектирования внешней формы манекена для одежды: дис.я ... канд. техн. наук : 05.19.04 / Иваново, 2020. – 244 с.
4. "Yosh hodimlarning tikuvchi xususiyatlari" – Sayyora Nematova (2019).
5. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
6. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. Universum: технические науки, (8-1 (77)), 27-29.
7. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
8. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
9. Hamidullo o'g'li, Tursunov Hojiakbar, and Boymuratov Erkin Kamolovich. "IMKONIYATI CHEKLANGAN O 'QUVCHILAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI." Scientific Impulse 1.7 (2023): 648-653.
10. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(2), 953-959.
11. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.
12. Расулов, Х. (2021). Ҳуқуқий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. Общество и инновации, 2(10/S), 335-342.
13. Ramazanovich, M. N., & Abdunazarovich, P. B. (2021). Protection of Family and Youth in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Middle European Scientific Bulletin, 18, 221-223.
14. Расулов, Х. М. (2021). ВЫБОРНЫЙ ЯВЛЕНИЕ И ПРОБЛЕМА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭЛЕКТРОКУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ. Восточно-европейский научный журнал, (11-6 (75)), 28-32.
15. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ, 75(part 6), 28.
16. Ramazanovich, M. N., & Kabilovich, B. O. (2021). Constitutional and Legal Framework for Providing International Peace. Middle European Scientific Bulletin, 18, 218-220.

17. Хакимова, М. (2021). Ўзбекистонда миллатлараро тотувликни таъминлаш соҳасидаги устувор йўналишлар. *Общество и инновации*, 2(10/S), 261-267.
18. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF POLITICAL PARTIES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 79-88.
19. Ramazanovich, N. M., & Abdurasulovich, E. B. (2022). PROCEDURE FOR REGISTRATION OF PUBLIC ASSOCIATIONS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 740-746.
20. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 89-94.
21. Ramazanovich, N. M., & Alisherovich, A. A. (2022). CONSTITUTIONAL STATUS OF THE FAMILY IN UZBEKISTAN. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 732-739.
22. Ramazanovich, N. M., & Mamanorov, K. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS, THEIR SUBJECTS, OBJECTS AND TYPES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(11), 747-756.
23. Normamat Mallaev Ramazanovich. (2022). CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF MASS MEDIA. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 70–78.
24. Normamat Mallaev Ramazanovich, & Khaitmurod Mamanorov. (2022). PECULIARITIES OF CONSTITUTIONAL-LEGAL RELATIONS. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(11), 89–94.
25. Ramazanovich, Mallaev N. "Comparative Analysis of National and Foreign Experiences on the Example of the Constitutional and Legal Basis of Ecological." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, no. 2, 2020, pp. 1-5.
26. Normamat Mallaev Ramazanovich, IMPORTANCE AND ANALYSIS OF THE CONCEPT OF CIVIL RIGHTS , *Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022): wos*
27. Кушоков, С. (2021). Сополли ва Жарқўтон маданиятида дафн маросимлари. *Общество и инновации*, 2(11/S), 150-154.
28. Kushokov, S. Y. (2021). The Role of Zoroastrianism in the Ancient State of Bactria. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 69-72.
29. Yusupovich, K. S. (2020). The Emergence Of Religious Views Is Exemplified By The Southern Regions. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 143-145.
30. Yusupovich, K. S. (2021). Қадимий Дафн Маросимларидаги Анъана Жараёнлари Ўзбекистон Жануби Мисолида. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 1(6), 72-77.

31.Сафарали, К. Ю. (2020). Чорвадор Қабилалар Дафн Маросимлари Ва Уларнинг Хусусиятлари. Взгляд В Прошлое, 3(4).

32.Сафарали, К. Ю., & Хуррамов, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING МАЛАЙЗИЯ ҲАМДА ИНДОНЕЗИЯ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАДАНИЙ СОҲАЛАРДАГИ ҲАМКОРЛИГИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 176-186.

33.Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary.

34.Kushokov, S. Y., & Ahmedov, S. (2021). THE STRUCTURE OF TURKISH TRIBES IN CENTRAL ASIA AND ITS HISTORICAL IMPORTANCE. European Scholar Journal, 2 (10), 25-27. Of Two Languages, Settlement And Livestock Tribes. The American Journal of Interdisciplinary